

XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O‘RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-iyun holatiga viloyat doimiy aholisining soni 4014,8 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 83,7 ming kishiga yoki 2,1 %ga ko‘paydi. Shundan, 2 285,4 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,9 %) va 1 729,4 ming kishi - qishloq joylarida (43,1 %) istiqomat qiladi.

Viloyat hududi va aholi zichligi (2023- yil 1- iyul holatiga)

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
Viloyat bo‘yicha	15.01.1938	6,759	4 014,8	594,0
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	1877 yil	0,113	318,4	2139,9
Qo‘qon	X asr	0,064	306,4	1001,5
Quvasoy	14.06.1954 yil	0,255	100,0	378,6
Marg‘ilon	X asr	0,050	248,8	6 068,8
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,401	225,8	357,9
Qo‘shtepa	16.04.1952 yil	0,398	206,0	559,9
Bag‘dod	31.12.1964 yil	0,386	230,1	691,1
Buvayda	26.12.1973 yil	0,305	244,1	874,8
Beshariq	29.09.1926 yil	0,746	240,0	310,1
Quva	10.02.1939 yil	0,437	273,0	623,3
Uchko‘prik	29.09.1926 yil	0,335	238,7	1024,4
Rishton	09.01.1967 yil	0,380	214,3	698,0
So‘x	27.02.1990 yil	0,221	82,6	373,6
Toshloq	12.04.1973 yil	0,280	216,4	890,3
O‘zbekiston	17.04.1963 yil	0,725	232,6	428,4
Farg‘ona	22.02.1964 yil	0,595	218,9	388,1
Dang‘ara	07.12.1970 yil	0,427	174,7	493,5
Furqat	09.04.1992 yil	0,282	125,6	411,8
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,359	118,3	290,7

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy tashkil topishi 1938-yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimoldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma'muriy hududiy bo'linishiga ko'ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 062 ta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tashkil topib, ularda **4014,8** ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma'muriy markazi Farg'ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog' tizmalari Farg'ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to'sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo'tadil. Yozi issiq, iyulning o'rtacha harorati 27,5°S, qishi nisbatan sovuq, yanvarning o'rtacha harorati -3°S. Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o'rtacha yog'in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.


Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot (2023- yilning 1- iyul holatiga)

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Farg'ona viloyati	4 014,8	2 285,4	1 729,4	102,1	56,9	43,1
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	318,4	318,4	0,0	105,3	100,0	
Qo'qon	306,4	306,4	0,0	117,0	100,0	
Quvasoy	100,0	56,3	43,7	102,2	56,3	43,7
Marg'ilon	248,8	248,8	0,0	101,8	100,0	
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	225,8	169,8	56,0	102,2	75,2	24,8
Qo'shtepa	206,0	79,0	127,0	102,7	38,3	61,7
Bag'dod	230,1	117,7	112,4	102,1	51,2	48,8
Buvayda	244,1	112,3	131,8	102,4	46,0	54,0
Beshariq	240,0	84,2	155,8	101,8	35,1	64,9
Quva	273,0	126,4	146,6	101,9	46,3	53,7
Uchko'prik	238,7	45,2	193,5	99,5	18,9	81,1
Rishton	214,3	136,9	77,4	102,1	63,9	36,1
So'x	82,6	52,2	30,4	101,9	63,2	36,8
Toshloq	216,4	50,8	165,5	102,2	23,5	76,5
O'zbekiston	232,6	106,5	126,1	93,7	45,8	54,2
Farg'ona	218,9	135,3	83,6	98,0	61,8	38,2
Dang'ara	174,7	38,6	136,1	95,7	22,1	77,9
Furqat	125,6	29,8	95,8	102,2	23,7	76,3
Yozyovon	118,3	70,7	47,6	102,2	59,8	40,2

Shaharlar ichida eng ko‘p aholi Farg‘ona shahrida 318,4 ming kishi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 %ga o‘sgan) va tumanlarda eng ko‘p aholi Quva tumanida bo‘lib 273,0 ming kishini tashkil qiladi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 %ga o‘sgan).

Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi

(2023- yil 1-iyul holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)




Yanvar-iyun oylarida viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

<i>Ko‘rsatkichlar</i>	<i>ming kishi</i>		<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>
Tug‘ilganlar	45,0	48,1	23,2	24,3
O‘lganlar	8,9	8,4	4,6	4,2
Nikohlar, <i>mingta</i>	10,8	10,2	5,6	5,1
Ajralishlar, <i>mingta</i>	2,5	3,1	1,3	1,6

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti

(2023- yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))



Tug'ilish darajasi. 2023-yilning yanvar-iyun oylari tug'ilganlar soni 48,1 ming kishini tashkil etdi va 2022-yilning shu davriga (45,0 ming kishi) nisbatan 3,1 ming kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 24,3 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Qo'shtepa tumanida 26,4 dan 28,5 promille, Uchko'prik tumanida 26,2 dan 27,0 promillega, Dang'ara tumanida 24,5 dan 26,9 promillega kuzatildi.


O‘lim darajasi. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni **8387** kishini tashkil qildi va 2022- yilning shu davriga (**8885** kishi) nisbatan 498 kishiga kamaydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil qildi (2022- yil yanvar-iyun oylarida **4,6** promille).

O‘lganlar sonining ko‘payishi viloyatimizning ba’zi shahar va tumanida yuz bergan bo‘lib, eng ko‘p o‘lim Farg‘ona shaharda 790 kishidan 5,0 promille, Qo‘qon shaharda 635 kishidan 4,2 promillega kuzatildi, Bag‘dod tumanida 563 kishidan 5,0 promille, Marg‘ilon shaharda 546 kishidan 4,4 promille, O‘zbekiston tumanida 544 kishidan 4,7 promille.

O‘lganlar umumiy sonining **59,9** %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **7,3** %i o‘sma kasalliklaridan, **4,4** %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, **5,3** %i baxtsiz hodisadan, **5,4** %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2023- yilning 1-iyul holatiga, %da)



Nikohlar va ajralishlar. 2023-yilning yanvar-iyun oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo‘limlarida **10193** ta nikohlar va **3107** ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 5,1 ta nikoh (2022- yilning tegishli davrida 5,6 ta) va 1,6 ta ajralishlar (2022- yilning tegishli davrida - 1,3) to‘g‘ri keladi.

Yanvar-iyun oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(birlikda)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Viloyat	10 792	10 193	2 527	3 107
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	782	828	356	372
Qo‘qon	767	775	276	314
Quvasoy	212	209	72	103
Marg‘ilon	647	646	168	191
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	617	592	118	140
Qo‘shtepa	498	474	112	131
Bag‘dod	580	560	154	192
Buvayda	644	556	111	159
Beshariq	636	628	101	156
Quva	778	686	121	167
Uchko‘prik	621	585	105	162
Rishton	671	689	152	206
So‘x	352	322	42	61
Toshloq	483	495	99	105
O‘zbekiston	702	551	137	161
Farg‘ona	684	592	173	178
Dang‘ara	523	471	119	126
Furqat	357	289	51	97
Yozyovon	238	245	60	86

Migratsiya. Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatga ko‘chib kelganlar soni **4406** kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa **5620** kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus **1214** kishiga (2022-yilning shu davrida - minus **1463** kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Qo‘qon shahri (minus **448**) va Marg‘ilon shahrida (minus **361**) kuzatildi.


Yanvar-iyun oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)


	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
Viloyat	4 568	4 406	6 031	5 620	-1 463	-1 214
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	1 487	2 192	809	1452	678	740
Qo'qon	276	63	694	511	-418	-448
Quvasoy	245	225	179	168	66	57
Marg'ilon	37	13	632	374	-595	-361
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	59	84	215	176	-156	-92
Qo'shtepa	341	211	198	177	143	34
Bag'dod	40	7	242	172	-202	-165
Buvayda	146	76	292	174	-146	-98
Beshariq	105	127	384	305	-279	-178
Quva	78	109	338	279	-260	-170
Uchko'prik	202	67	294	152	-92	-85
Rishton	99	105	225	206	-126	-101
So'x	43	69	15	40	28	29
Toshloq	191	158	185	192	6	-34
O'zbekiston	227	186	392	250	-165	-64
Farg'ona	390	232	333	557	57	-325
Dang'ara	350	216	274	148	76	68
Furqat	195	189	229	182	-34	7
Yozyovon	57	77	101	105	-44	-28

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 254,8 ming so'mni tashkil qildi va 2022-yilning shu davriga nisbatan 21,4 % ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 4 566,9 ming so'mni, Qo'qon shaharda 3 741,1 ming so'mga to'g'ri keldi.

Yanvar-iyun oylari davomida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi (ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2023- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz ming so'mda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug'urta faoliyatiga to'g'ri kelib, 9 488,7 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich qurilishda 2 998,2 sanoatda 3 836,3 va ta'lim sohasida 2 696,3 ming so'mdan iborat bo'ldi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-iyun oylari qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming.so'mda)

	2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati %
Viloyat	2 680,7	3 254,8	121,4
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	3 659,5	4 566,9	124,8
Qo'qon	3 038,7	3 741,1	123,1
Quvasoy	2 546,4	3 225,7	126,7
Marg'ilon	2 303,7	2 761,9	119,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	1 882,5	2 223,1	118,1
Qo'shtepa	2 364,9	2 826,2	119,5
Bag'dod	2 422,2	2 734,7	112,9
Buvayda	2 021,4	2 568,4	127,1
Beshariq	1 967,5	2 439,3	124,0
Quva	2 148,0	2 502,6	116,5
Uchko'prik	2 233,9	2 416,7	108,2
Rishton	2 194,1	2 339,6	106,6
So'x	2 293,8	2 641,3	115,1
Toshloq	2 985,3	3 455,2	115,7
O'zbekiston	2 193,3	2 602,8	118,7
Farg'ona	2 114,0	2 500,2	118,3
Dang'ara	2 084,5	2 526,9	121,2
Furqat	2 300,5	2 773,8	120,6
Yozyovon	2 300,8	2 722,3	115,3

***(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*